




Sirdaryo viloyatida chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning yanvar-oktyabr oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,4 %ga oshdi.


Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 6,5 %ni, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 89,6 %ni tashkil qildi.

*2018 yil yanvar-oktyabr oylarida o'qatlanish tashkilotlarini
qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da)*




Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Guliston shahri (38,7 foiz), Sirdaryo (11,6 foiz), Guliston (8,4 foiz) va Sardoba (8,4 foiz) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Hududlarning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, % da



Чакана савдо айланмасида йirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulishi, %



Ovqatlanish tashkilotlarini qoʻshgan holda, chakana savdo tovarlar aylanmasi aholi jon boshiga 1,7 foizga oshib, 2195,3 ming so'mni tashkil etdi (2017 yil yanvar-oktyabr oylarida 1788,8 ming so'mni tashkil qilgan edi).

Oʻrtacha jon boshiga tovarlar aylanmasining eng yuqori koʻrsatkichlari Guliston shahri (7870,8 ming soʻm), Yangiyer shahri (3331,6 ming soʻm) va Sardoba tumanida (2344,1 ming soʻm) kuzatildi.



Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming soʻm	oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Sirdaryo viloyati	2195,3	101,7
Guliston shahar	7870,8	112,3
Shirin shahar	1211,2	89,7
Yangier shahar	3331,6	97,1
Boyovut tumani	750,5	94,9
Guliston tumani	2179,5	96,2
Mirzaobod tumani	1864,7	90,7
Oqoltin tumani	1406,9	90,9
Sardoba tumani	2344,1	97,6
Sayxunobod tumani	975,8	106,5
Sirdaryo tumani	1684,9	100,5
Xovos tumani	679,5	91,2


KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,0 % ga oshdi va jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmidan 93,5 % ini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning umumiy tovar aylanmasi hajmidan 177,2 mlrd. so'mni uyushmagan savdo tashkil qiladi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 9,8% ni tashkil etdi.



Tuman shaharlar kesimida chakana savdo aylanmasidagi kichik biznes ulushi % da.



Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Guliston shahrida 38,4%, Sirdaryo tumani 11,5%, Guliston tumanida 8,4%, Sardoba tumanida 8,2 %, va eng past ulush Shirin shahar 1,2%, qayd etildi.


2018 yil yanvar-oktyabr oylarida ULGURJI TOVAR AYLAMASI

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida ulgurji tovar aylanmasi 951,1 mlrd. so'mni tashkil qildi yoki 2017 yilning shu davriga nisbatan 103,2 %ni tashkil qildi.

Ulgurji tovar aylanmasining o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati ko'payishi kuzatilgan hududlar quyidagilardan iborat: Xovos tumani 174,6 %, Guliston shahar 116,2 %, Guliston tumani 109,5 %, Shirin shahar 108,3 %,.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 6,6 %ga oshdi va 529,5 mlrd. so'mni tashkil qildi, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 55,7 %ni tashkil qildi.

Tuman shaharlar kesimida ulgurji savdo aylanmasidagi kichik biznes ulushi %da.



Sirdaryo viloyati statistika
boshqarmasi Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'lim
boshlig'i: Z.Eshqulov

(0371) 230-86-34